

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:
<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>



AFG'ONISTON QARSHILIK SHE'RIYATI VA PARTAV NODIRIY IJODI

*Afzuna Nazarova
tayanch doktorant (PhD)*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HA QIDA

Kalit so'zlar: Qarshilik adabiyoti, Afg'oniston, muhajirlik, Sovet Ittifoqi, mujohidlar, Tolibon davri, X. Xaliliy, K. Kozimiy, P.Nodiriy.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Afg'onistonda qarshilik she'riyatining paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari va ushbu adabiyotga mansub shoirlar, ularning ijod namunalari haqida so'z boradi. Mavzuni yoritishda tarixiy, sotsiologik va germenevtik metodlaridan foydalanildi. Qarshilik adabiyoti, xususan, she'riyati nafaqat dariy-fors adabiyotida balki jahon adabiyotida ham keng qo'llanilib kelmoqda. Bu she'riyat jahon adabiyotida xalqlarning zulmkor tuzum va bosqinchilikka qarshi kurashi, ozodlik uchun olib borgan urushlari natijasida paydo bo'lgan adabiyotga nisbatan qo'llaniladi. Afg'on adabiyotida bu voqelik Sovet Ittifoqining mamlakatga bostirib kirishi bilan yaqqol tus oldi va mujohidlar, tolbon hukmronligi yillarda ham ko'zga tashlandi. Uzoq yillar davom etgan notinchliklar, siyosiy, ijtimoiy-madaniy inqiroz tufayli mamlakat aholisi dunyoning turli tomonlariga sochilib ketishdi. Ayniqsa ziyoli qatlam o'zlarining erkin ijodi, osoyishta hayoti uchun turli davlatlarga hijrat qilishga majbur bo'ldilar. Shu jihatdan Afg'oniston qarshilik adabiyotini ikki xil aspektida: mamlakatning ichki va tashqarisida rivojlanganligini kuzatamiz. Xoh mamlakat ichida, xoh tashqarisida bo'lsin, Afg'oniston qarshilik adabiyotini yaratishga katta hissa qo'shgan adiblar qatorida Xalilulloh Xaliliy, Abdurahmon Pajvok, Vosif Boxtariy, Partav Nodiriy, Xolida Furug', Kozim Kozimiy kabi shoirlarni sanab o'tish mumkin. Bu shoirlar qalamdan o'q sifatida foydalanib, urush, notinchlik, zulmga qarshi turdilar. Mamlakatda tinchlikni, erkinlikni, adolatni va ma'rifatparvarlikni yoqlab nazm va nasrda ijod qildilar. Qarshilik adabiyotiga mansub she'rlar ham mazmunan, ham shaklan ahamiyatliligi bilan e'tiborlidir. Maqolada shunday she'rlarni tahlil qilish orqali Afg'oniston

AFGHANISTAN POETRY OF RESISTANCE AND PARTAW NADIRI'S WORK*Afzuna Nazarova**PhD student**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Literature of the Resistance, Afghanistan, emigration, Soviet Union, Mujahideen, Taliban era, H. Khalili, K. Kozimi, P. Nadiri.

Abstract: This article talks about the origins of resistance poetry in Afghanistan, the stages of its development, the poets belonging to this literature, and examples of their work. Historical, sociological and hermeneutic methods were used to illuminate the topic. Resistance literature, especially poetry, is widely used not only in Dari-Persian literature but also in world literature. This poetry is used in world literature as a result of people's struggle against a repressive system and occupation, as well as the war for freedom. This reality became evident in Afghan literature after the invasion of the country by the Soviet Union, as well as during the reign of the Mujahideen and Taliban. Due to many years of unrest, political, socio-cultural crisis, the country's population was scattered in different parts of the world. Especially the intelligentsia was forced to emigrate to different countries for free creativity and a peaceful life. From this perspective, we observe the development of Afghan resistance literature in two different aspects: inside the country and outside it. Whether within the country or outside, poets like Khalilullah Khalili, Abdurrahman Paivok, Wasif Bokhtari, Partav Nadiri, Khalida Furug, Kozim Kozimi can be listed among the writers who contributed greatly to the creation of Afghan resistance literature. These poets used the pen as an arrow and spoke out against war, unrest and oppression. They created poetry and prose in the name of peace, freedom, justice and enlightenment in the country. Poems belonging to the literature of resistance are distinguished by their significance both in content and in form. Based on the analysis of such poems, the article to some extent reveals the image of the literature of the Afghan resistance.

ПОЭЗИЯ АФГАНСКОГО СОПРОТИВЛЕНИЯ И ТВОРЧЕСТВО ПАРТАВА НАДИРИ

*Афзуна Назарова**докторант (PhD)**Ташкентский государственный университет востоковедения**Ташкент, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова:

Литература Сопротивления, Афганистан, эмиграция, Советский Союз, моджахеды, эпоха Талибана, Х. Халили, К. Козими, П. Надири.

Аннотация: В данной статье говорится о зарождении поэзии сопротивления в Афганистане, этапах ее развития, поэтах, принадлежащих к этой литературе, и примерах их творчества. Для освещения темы были использованы исторические, социологические и герменевтические методы. Литература сопротивления, особенно поэзия, широко используется не только в дари-персидской литературе, но и в мировой литературе. Эта поэзия используется в мировой литературе как результат борьбы людей против репрессивной системы и оккупации, а также войны за свободу. Эта реальность стала очевидной в афганской литературе после вторжения в страну Советского Союза, а также в годы правления моджахедов и талибов. Из-за долгих лет волнений, политического, социально-культурного кризиса население страны было разбросано по разным частям света. Особенно интеллигенция была вынуждена эмигрировать в разные страны для свободного творчества и мирной жизни. С этой точки зрения мы наблюдаем развитие литературы афганского сопротивления в двух разных аспектах: внутри страны и за ее пределами. Будь то внутри страны или за ее пределами, такие поэты, как Халилулла Халили, Абдурахман Пайвок, Васиф Бохтари, Партау Надири, Халида Фуруг, Козим Козими, могут быть перечислены среди писателей, внесших большой вклад в создание литературы афганского сопротивления. Эти поэты использовали перо как стрелу и выступали против войны, беспорядков и угнетения. Они создавали стихи и прозу во имя мира, свободы, справедливости и просвещения в стране. Стихи, принадлежащие к литературе сопротивления, отличаются своей значимостью как по содержанию, так и по форме. На основе анализа подобных стихотворений в статье в некоторой степени раскрывается образ литературы афганского сопротивления.

KIRISH

Dariy-fors adabiyotida qarshilik she'riyati ildizlari, dastlab, afg'on-britan urushlari, yillarida yozilgan adabiy asarlarga borib taqaladi. Albatta, afg'on-britan urush yillaridagi she'riyat sifat jihatidan va aynan qarshilik she'riyati sifatida o'zini yaqqol namoyon qilmagan. "Jangnoma", "Akbarnoma" kabi asarlar qarshilik she'riyati oqimi tarkibiga kiritilmasa-da, bu asarlarni xalqni uyg'otishga undovchi asarlar sirasiga kiritish mumkin.

Keyinchalik, chin ma'noda qarshilik she'riyati Afg'onistonda Sovet Ittifoqining bostirib kirishi bilan qo'g'irchoq rejimaga qarshi mamlakat ichkarisi va tashqarisidagi g'alayonlardan tortib, muhojirlik hamda Tolibon rejiminining qulashigacha bo'lgan vaqt mobaynida shakllangan adabiyotga nisbatan e'tirof etildi. "Qarshilik she'riyati o'ziga xos ma'noda mahalliy shoirlarning xorij bosqiniga qarshi tajovuzkorligini va ularning o'zi harakat qiladigan tuzumga qarshi

kurashini aks ettiruvchi she'rdir”¹. “1978-yil savr oyida va undan keyin Afg'onistonda ro'y bergan voqealar bu mamlakatdagi ko'hna adabiyotning keyingi 20-25 yillik qiyofasiga, mazmun va badiiy-estetik tajribasiga o'z ta'sirini o'tkazib, hamon o'z asoratini qoldirib kelmoqda”².

METHODS/ МЕТОДЫ / TADQIQOTNING USULLARI

Afg'oniston qarshilik she'riyati ushbu davlat adabiyotining bir bo'lagi sifatida olimlarda katta qiziqish uyg'otib kelgan. Inson omilining birlamchi rolini inobatga olsak, zamonning zayli ya'ni ushbu davr tarixini o'rganishimiz bilan adabiyotning in'ikosi, shoir yozuvchilarining asarlarida tasvirlangan oddiy xalqning o'ylari, orzu-armonlari, xursandchilik-u iztiroblari yuzaga chiqadi. Maqsadimiz bu davr adabiyotining o'zgarishlarini izchillikda ko'rsatib berishdan iborat.

Bu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi.

- Afg'oniston qarshilik adabiyoti paydo bo'lismiga sabab bo'luvchi omillarni aniqlash;
- qarshilik she'riyati xususiyatlarni aniqlash;
- Partav Nodiriy she'rlari va uning tahlili orqali afg'on adabiyotining she'riyatini va xalqining hissiy kechmishlarini ohib berish.

Usullar: 1970-yillardan keyingi adabiyot, xususan, she'riyat o'sha zamonning siyosiy, ijtimoiy-madaniy o'zgarishlari bilan uzviy bog'liqligi sababli mavzuni yoritishda sotsiologik va tarixiy metodlar birlamchi rol o'ynaydi. Davrning siyosiy voqealari, jamiyatning qiyofasini ohib berishda shoirlar o'z qurollari bilan kurashga otlanishdi. Ularning she'rlarini tahlil qilishda germenevtik tadqiqot usuli tanlandiki, bu orqali mamlakatning qiyofasi, xalqning ahvoliga, istak-xohishlari, qayg'u-g'amlari, kechmishlariga oyna tutildi.

NATIJALAR/MUHOKAMA

Afg'oniston qarshilik she'riyatiga xos bo'lgan asosiy xususiyatlardan biri soddalik va ochiqlik, kezi kelganda pardaga o'ralgan achchiq haqiqatlarini xalq tilida bayon qiladi. Shu bilan bir qatorda shoirdan bosqinchilarga qarshi kurashga otlangan xalqning kechinmalari, yaqinlari dog'ini ko'rgan insonlarning iztiroblari, zamon notinchligidan charchagan millatning g'am-anduhlarini ifodalashda so'z sehrining ta'sirchanligi, she'r ilmining balog'atidan foydalangan holda she'rnii badiiy go'zallashtirish talab etiladi. Shuningdek qarshilik she'riyati botinan an'ana va qadriyatlar himoyachisi, insoniylik va milliy o'ziga xoslikning qo'riqchisi hamdir.

Professor A.M.Mannonov qarshilik adabiyotining ilk namunalari 50-60-yillardayoq, asosan Nur Muhammad Tarakkiy va Sulaymon Loyiq, Dastagir Panjshiriy, Boriq Shafeiy, Asadullo Habib kabi shoir va yozuvchilarining ijodida ko'rinish bergenini va 1978-yil haqiqiy qarshilik adabiyoti darajasiga ko'tarilganini e'tirof etadi³. Qarshilik adabiyoti deganimizda doimiy bosqinchilikka qarshi she'r tushunilgan holda, shoir uchun uning hududiga bosqin qaysi tomonidan bo'lishi muhim emas, muhimi zo'ravonlik, tajovuzkorlikning mavjudligidir⁴. Shoirning ham shu asnoda o'z pozitsiyasi bor. Bosqinchilik, zo'ravonlik va notinch hayot zayliga qarshi shoir she'r orqali bosh ko'taradi. Vatan ozodligiga millat birlashishi bilan erishishni xohlaydi. Ammo bu yo'l qurbanlarsiz, talofatlarsiz, nech-necha umrlarning zavolisiz kechmaydi. Afg'on elida bu jarayon Ravnaq Nodiriy, Poyiz Hanifiy, Doud Sarmad, Ali Haydar Lahib, Sarshor Rushaniy, Muhammad Nabi Maftun, G'ulom Ali Shukron, Voiz Bard kabi adiblarning hukmron tuzumga va bosqinchilikka qarshi chiqishgani uchun shahid bo'lishi bilan namoyon bo'ldi. Mahmud Foroni, Latif Nozimi, Vosif Boxtariy, Sabrulloh Siyohsang,

¹ صالح محمد خليق، تأثير شاهنامه بر شعر مقاومت افغانستان. تهران، ۲۰۱۶. - ص. ۹۰.

² A.M.Mannonov. Ochilmay qolgan g'unchalar//Sharqshunoslik masalalari. T.: Fan, 2022. – 113b.

³ A.M.Mannonov. Ochilmay qolgan g'unchalar//Sharqshunoslik masalalari. T.: Fan, 2022. – 114b.

⁴ صالح محمد خليق، تأثير شاهنامه بر شعر مقاومت افغانستان. تهران، ۲۰۱۶. - ص. ۹۲.

Asadulloh Valvoljiy, Afsar Rahbin, Partav Nodiriy kabi boshqa taniqli shoirlar umrlarining uzoq yil va oylarini qamoqda o'tkazdilar⁵.

Afg'oniston qarshilik adabiyoti mamlakatdag'i ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda 1) jihad yoki Afg'oniston Xalq Demokratiyasi partiyasi davri, Sovet Ittifoqining bosqinchilik davri (1978-1989-yillar); 2) ichki urushlar davri (1989-1992-yillar); 3) tolbon hukmronligi davri (1992-2001-yillar)da o'z ahamiyatini saqlab qoldi. Uning ahamiyatliligi shunda ediki, "bu davrda hikoyachilik va "yangi, toza, erkin" she'r hamda yangi paydo bo'lgan zamonaviy publisistika "inqilobiy" adabiyotning tom ma'nodagi minbariga aylandi. Shu bilan birga mumtoz adabiyotning g'azal, ruboiy, qasida, muxammas kabi shakllarida ham "inqilobiy" mavzu, yangi zamon ohanglari baralla yangradi"⁶.

Sotsialistik tuzum targ'iboti va Sovet Ittifoqining mamlakatga kirib kelishi, uning 10 yillik hokimiyati afg'on adabiyotida qarshilik adabiyotining mahsuldorligiga sabab bo'ldi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, bu tuzumning tarafdarlari orasida ham shoir va adiblar ham bor ediki, ular sotsialistik tuzumning ko'plab ijobiy taraflarini yoqlab, nasr va nazmda, dramaturgiyada buni tarannum etishdi. Xususan, monarxiyaning tugatilishi ortidan demokratiya va teng huquqlilikka erishib, xalqqa ko'plab ijobiy imkoniyatlarni ochib berdi. Erkaklar va ayollarning ta'linda ham teng huquqliliği mamlakat hayotida savodxonlikni oshirishga olib keldi. Ammo bu tuzumning o'ziga xos tobelikni keltirib chiqaruvchi shartlari qarama-qarshi kuch tarafidan yoqlanmadni va ziddiyatlar hayot bilan birga adabiyotga ham ko'chdi.

Ichki urushlar davridan to mamlakat tolbon hukmronligi qo'l ostiga o'tgunga qadar bo'lgan davrida afg'on she'riyatida qarshilik she'riyati o'zining yangicha qirralarini kashf qildi. Bu davr she'riyatida hamdardlik, bag'rikenglik, birodarlarini o'ldirish va xasislikni qoralab yozilgan misralar vujudga keldi. Bir qatorda afg'on yurtidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan ta'sirlanib, pessimistik kayfiyatga tushib qolgan she'rlar ham mavjud edi.

1996-yildan keyingi she'riyat zo'ravonlik, zo'rlik, erkinlikning cheklanishi, o'ldirish va ko'ch-ko'chlar odamlarni bunga qarshilik ko'rsatishiga sabab bo'ldi. O'z navbatida tajovuzkor qarshilik uchqunlari shoirlar she'rlariga ko'chdi. "Bu davr she'riyati barqaror unsurlarga ega bo'lsa-da, unchalik ritorik va badiiy emas, hukumatning kuchli senzurasi o'ziga xos sirlilik, ramziylikni keltirib chiqaradi"⁷.

Qarshilik she'riyati geografik nuqtayi nazardan 2ga bo'linadi: mamlakat ichkarisida rivojlangan she'riyat va mamlakat tashqarisidagi she'riyat. Mamlakat tashqarisidagi adabiyotni rivojlantiruvchi massa madaniyat va san'atning turli sohalaridagi ba'zi afg'on ziyorilari Afg'onistondagi mavjud ijtimoiy-siyosiy tanglik, beqarorliklar tufayli vatanni tashlab chiqishlariga majbur bo'lishdi. Ularning katta qismi Pokiston va Eronga hijrat qilgan bo'lishsa, qolganlari g'arbdan panoh topishdi.

Mamlakat ichkarisidagi qarshilik adabiyoti Sovet Ittifoqining bosqinchiligi davrida Sho'rolar bosqiniga qarshi shoirlar uch toifaga bo'linib qoldi.

Birinchi guruh vakillari ijodida kuchli ruhiy tushkunlik yuz berdi va natijada umuman ijod qilmay qo'yishdi. Bu o'ziga xos ma'noda yangi tuzumga qarshi norozilik ifodasi edi.

Ikkinci guruh adiblari dastlab "inqilobiy" adabiyot tarafdori bo'ldilar. Unga ergashib, ishonib o'z asarlarida inqilobni tarannum etdilar. Ammo vaqt o'tib, ular o'ylagan, orzu qilgan

⁵ صالح محمد خليل، تأثر شاهنامه بر شعر مقاومت افغانستان. تهران، ۲۰۱۶. - ص ۱۰۸.

⁶ A.M.Mannonov. Ochilmay qolgan g'unchalar//Sharqshunoslik masalalari. T.: Fan, 2022. – 114b.

⁷ بلى کمالوند، بررسی شعر معاصر افغانستان با تکیه بر ادبیات مقاومت و همسویی با ادبیات پایداری مشروطیت در ایران. – ۱۳۹۰، تهران.

hayot safsata va yolg'onlarga to'la ekanliklarini bilishgach, asta-sekin Savr voqealarini qoralab, uning mamlakatga yetkazgan kulfatlarini tanqid ostiga oldilar.

Uchinchi guruh shoir va yozuvchilari Savr voqealarining ilk kunlaridanoq unga qarshi turgan va nihoyasida vatan xoini, xalq dushmani sifatida ta'qib ostiga olingan, surgun qilingan, qyinoqqa solinib, qamoqqa tashlangan va hatto, o'ldirilgan adiblar guruhi edi⁸. Bu guruh vakillarining ayimlari shunday tahqir va ta'qiblardan qochib xorijga muhojir bo'ldilar.

Afgoniston qarshilik she'riyatining Erondagi ilk uchquni 1984-yil Mashhadda muhojirlarning birinchi madaniy uyushmasi tashkil etilganidan so'ng, Ustoz Barot Ali Fidoiyning "Qon qo'shig'i" nomli she'riy to'plami nashr etilishi ortidan olovlandi. Ammo muhojirlik she'riyatining jiddiy tahavvuli 1986-yil "Afg'on muhojir shoirlari islom uyushmasi" tashkil etilganidan keyin yuz berdi⁹. Uyushma tarkibida Ustoz Barot Ali Fidoiy Hiraviy, Rustamiy Hiraviy, Nurulloh Vasuq, Nizomiddin Shukuhiy, Ali Ahmad Zargarpur, Ali Hakim Hiraviy, Muhammad Ibrohimzoda, Nosir Farhod, Muhammad Osif Rahmoniy, Said Ahmad Hoshimiyy, Habibulloh Zabihiy, G'ulom Rasul Puyon va boshqalar, keyinchalik esa Muhammad Kozim Kozimiy, Muhammad Hasan Husaynzoda, Faridun Naqqoshzoda, Sayid Abutolib Muzaffariy, Sayid Nodir Ahmadiy kabi ko'plab yosh shoirlar ham a'zo bo'lishdi.

Erondagi ziyorolar, adiblar o'rtasida turli yig'ilishlar, tadbirlarning o'tkazilib turilishi afg'on muhojir shoirlarini Eronning boshqa shaharlaridagi vatandosh adiblar bilan tanishib, fikr almashinuviga olib keldi. Ustoz Vosif Boxtariy Afg'on qarshilik she'riyatining Erondagi mavqeyini shunday baholaydi: "Xorijdagi xususan, Erondagi Afg'oniston qarshilik she'riyati kuchli bir oqimdir. U bizga o'zining ko'zga ko'ringan vakillarini taqdim etgan, bizning fikrimizcha, bu bizning kelajagimizga hurmat va umiddir."¹⁰

Afg'oniston qarshilik she'riyati Eronga qaraganda Pokistonda birmuncha avvalroq paydo bo'ldi. Bu davrda afg'on muhojir shoirlarining faoliyat markazi bo'lgan Peshovar va Kvetta shaharlari edi. Pokistonga hijrat qilgan afg'on muhojir adiblari orasida Xalilulloh Xaliliy, Abdurahmon Pajvok kabi shoirlar, Sayyid Is'hoq Husayniy "Dilju", Abdulahad Torshiy, Mavlaviy Muhammad Hanif Balxiy kabi siyosiy va jihad faollari Afg'oniston qarshilik she'riyatining kashshoflaridan hisoblanadi. Keyinchalik, ichki urushlar va ayniqsa, Tolibon hukmronligi davrida Afg'onistondan Pokistonga ko'chib kelgan ko'plab shoirlardan Vosif Boxtariy, Haydariy Vjudiy, Sabrulloh Siyohsang, Partav Nodiriy, Abdulsami' Homid, Xolida Furug', Gulnur Bahman, Muhibulloh Boresh, Zabihulloh Otash, Akbar Sano G'aznaviy, Parviz Kova, Xolida Tahsin, Sojida Milod, Vahid Vorista, Asadulloh Valvolji, Jovid Farhod, Mahmud Hakimiyy kabi shoirlar ham qarshilik she'rularini yozishni boshladilar.¹¹ Bu shoirlar tomonida yozilgan she'rlarning mavzu va g'oyasi, asosan, jihad, vatan sog'inchi va hijrat azobi mazmunida yozilgan she'rlardan iborat bo'lgan.

Afg'on qarshilik she'riyati har ikki sohada, xoh tashqi bo'lsin, xoh ichki, shu zamin ahlining dardlari, iztiroblari, umidlari ko'ziga ochilgan darchadir. Tarix o'tishlarida qonga, olovga aralashib, erk va adolat uchun hayqirgan she'r. "Aslida Afg'onistondagi bu davr va bu avlod she'riyatini islohotchi she'riyat deb qarash kerak. Bu shoirlar ham she'r ko'rinishida, ham

⁸ A.M.Mannonov. Ochilmay qolgan g'unchalar//Sharqshunoslik masalalari. T.: Fan, 2022. – 118, 121b.

صالح محمد خليلي، تأثر شاهنامه بر شعر مقاومت افغانستان. تهران، ۲۰۱۶. – ص ۱۱۳.

صالح محمد خليلي، تأثر شاهنامه بر شعر مقاومت افغانستان. تهران، ۲۰۱۶. – ص ۱۱۴.

صالح محمد خليلي، تأثر شاهنامه بر شعر مقاومت افغانستان. تهران، ۲۰۱۶. – ص ۱۱۵.

uning mohiyatida islohotlarga ishongan, hukumat bilan munosabatlari, ko‘pincha, jangari va tajovuzkor emas, balki konservativ va maslahatchi bo‘lgan.”¹²

Doktor Abdulsami’ Homidga ko‘ra muhojirlilikdagi qarshilik adabiyoti mamlakat ichidagi qarshilik adabiyotidan birmuncha farqlanadi. Ayniqsa, g‘arbda o‘rnashgan afg‘on adiblari asarlariga vatan xotirasi bilan yondoshganlar. Bu yozuvchilarning aksariyatining adabiy merosida hissiyotlar, iztiroblar tasviri jihatidan yuksak baholansa-da, kontekstning yo‘qligi (ya‘ni dariy yoki pashtu tilida so‘zlashuvchilarning yo‘qligi), madaniy auraning torligi va psixologik farqlarning hammasi birga kelib, qahramon tavsifi badiiy-uslubiy jihatdan xato tasvirlandi¹³. Bu she‘rning til xususiyatlarini ko‘rsatib beradi.

She‘rning poetik xususiyatlarini, badiiyligini ko‘rsatib berishda uning til va tafakkur jihatlaridan tashqari musiqiyligi ham katta ahamiyat kasb etadi. She‘rning musiqiyligini yaratishda vazn va shakl konstruktiv rol o‘ynaydi. Qarshilik she‘riyatida masnaviy shakli ko‘proq qo‘llanilgan. Bu adabiyotda masnaviyning betakror namunalarini Sayyid Abu Tolib Muzaffariy va Kozim Kozimi ijodida ko‘rish mumkin. Shuningdek “Islom inqilob shoirlari uyushmasi”ning boshqa a’zolari ham ularga ergashib masnaviyda o‘z kechinmalari va g‘oyalarini tarannum qilishdi. Masnaviy bilan birga qasida janrida ham unumdon she‘rlar yozildi. Bu janrdan Xalilulloh Xaliliy, Abdurrahmon Pajvok, Kozim Kozimiyning, Jalil Shabgir Pulodiyon kabilar ko‘proq foydalanishgan. Chorpora, ruboiy, dubaytiy, g‘azalning bir turi bo‘lgan g‘azal-masnaviy janrlari ham qarshilik she‘riyatining barcha davrlarida, hamda ichki va tashqi sohalarida ham keng qo‘llanilgan shakllardan bo‘ldi. Shu bilan birga yangi qoliplar sirasiga kiruvchi- Nimoiy, oq she‘r va ozod she‘r shakllaridan ham keng foydalanildiki, bu shakllarda Vosif Boxtariy, Partav Nodiriy, AbdulSami’ Homid, Sarvar Ozarkesh va boshqa shoirlar she‘r yozganlar¹⁴.

Qarshilik she‘riyatida tasviriylik haqida aytishimiz kerakki, afg‘on adabiyoti qadimdan sharq mumtoz she‘riyatining jozibador elementlari bilan sug‘orilgan. Buni inkor etolmaymiz. Shoirlarning ba’zilarida bu elementlarni ko‘rishimiz ham mumkin. Ammo zamon talabi, davr va hayot o‘zgarishi she‘r tasviriga ham o‘zgartirishlar kiritdi. Shoirlar endi oddiy xalqning turmush tarzi, real hayotda sodir bo‘layotgan voqealar izini o‘z she‘rlariga jo qilishdi. Buning orqasidan she‘riyat mazmunida yangi so‘zlar, yangicha ifodalar, baralla aytolmaydigan kezlarda yashirin ma’nolarga ega ramziy obrazlar ko‘rina boshladi.

Afg‘oniston qarshilik adabiyotining yuqorida sanab o‘tilgan taniqli shoirlaridan biri Xalilulloh Xaliliy (1907-1987) o‘sha davrdagi afg‘on she‘riyatining, ayniqsa, mumtoz she‘riyat namoyondalari orasida alohida obru’-etiborga loyiqidir. U Afg‘onistonning Sovetlar tomonidan bosib olinishi davrida erk va vatanparvarlik she‘rlari bilan xalqda qarshilik ruhini saqlab qolgan va xorijda afg‘on qarshilik she‘riyati asoslarini o‘rnata olgan shoirlardandir.

Xaliliyning mustazodga o‘xshagan “Qochqinlarning Navro‘zi” she‘ri Amerikada yozilgan bo‘lib, garchi kinoyali tilda yozilgan bo‘lsa-da, o‘ziga xos ohang va ritm uni xalq ichida sevib o‘qiladigan va kuylanadigan she‘rga soldi:

*Navro‘z bu yil kelmasin, degin
Qonli o‘lkada kafanlarga yo‘l ochmang*

گویید بە نوروز كە امسال نىيابىد
در کشور خونین کفان رەنگشىابىد

¹² https://www.mkkazemi.com/moghavemat_afg/

صالح محمد خلیق، تأثیر شاهنامه بر شعر مقاومت افغانستان. تهران، ۲۰۱۶. – ص ۱۰۹.

صالح محمد خلیق، تأثیر شاهنامه بر شعر مقاومت افغانستان. تهران، ۲۰۱۶. – ص ۱۱۷.

*Bulbul, gulzorlarda shodlik kuyini kuylama
G‘amlarga tabassum ulashmang
Vatan shahidlarining tuprog‘idan qon oqar,
Oh, vatanim, oh.*

بلبل بچمن نغمه شادى نسرايد
ماتمىزىگانرا لب پرخنده نشايىد
خون مى نمد از خاک شهيدان وطن واى
اى واى وطن واى

*Bahormi, qishmi, gulgum kafanlarni
Cho ‘ldami, gulzordami qonli jigarlarni*

گلگون كفانرا چە بهار و چە زەستان
خونين جگران را چە بىبابان چە گەستان

*Yonayotgan mamlakatda, vayron uylarda
Oh yetimlarni o‘padigan hech kim yo‘q
O‘liklarni kafanlaydigan hech kim yo‘q,
Oh, vatanim, oh.*

در كشور آتىش زىدە در خانە ويران
كس نىيىت زىد بوسە برخسار يېيمان واى
كس نىيىت كە دوزد بە تىن مردە كفن واى
اى واى وطن واى

*Bugun ko‘ksingdagى har bir toshdan qon
oqmoqda
Bugun tuprog‘ingdan mastlik, telbalik
ufurmoqda
Bugun o‘sha esmayotganini lola nima ko‘rdi?
Va nega o‘sha yashil o‘simlik bugun sarg‘ayib,
so‘ldi?
Boshdan oyoq sarvi sumanni kuylang
Oh, vatanim, oh.*

از سىئە هەر سنگ تو خون مى نمد امروز
از خاک تو مىتى و جنۇن مى نەدارمۇز
آن لالە چى دىدە كە نىگون مى نەدارمۇز
و آن سىزە چىرا زىرىدۇ زېيون مى نمد امروز
سرخىت بخون پا و سر و سرو و سمن واى
اى واى وطن واى

Navro‘z azaldan turkiy millatlarning sevimli bayrami hisonlangan. Uning kelishi bahorning iliq quyoshi yanglig‘ qalblarga iliqlik va muhabbat nurlarini sochadi. Ko‘ngillar bahor va Navro‘z bilan birga yasharadi, go‘zallahadi. Ammo afg‘on diyoriga endi Navro‘z kelmasin. Qonga botgan tuproqqa, shahid ketgan o‘g‘lonlarga, yetim qolgan bolalarining g‘amiga endi Navro‘z tatimaydi. Shoir alamlarining, iztiroblarining cheki yo‘q. Xaroba uylarga, hatto o‘liklarini ham kafanlashga imkon yo‘q motamsaro xalqqa endi Navro‘z ham iliqlik va xursandchilik berolmaydi demoqchi.

Mamlakat ichkarisida ham kuchli qarshilik she’riyati shiddat bilan rivojlanayotgan bir vaqtدا xorijdagi ba’zi shoirlar Afg‘onistondagi sun‘iy o‘yin maydonchalariga qarshi afg‘on qarshilik she’riyatini yaratganlar. Partav Nodiriy, Qahhor Osiy, Afsar Rahbin, Laylo Sarohat Ravshaniy, Abdulsami’ Homid, Latif Pedrom, Surayyo Vohidiy kabi o‘nlab shoirlarning she’rlarida biz qarshilik ruhini ko‘ramiz. 1980-yildan keyin hukmron apparat tomonidan milliy yarashuv siyosati olib borilishi natijasida mamlakatni tark etmagan ko‘plab shoirlar o‘z ijodiy faoliyatlarini uyushmalar markazlarida olib bordilar. Vosif Boxtariyning fikricha, vatanda qolgan ko‘plab shoir va yozuvchilar “Mavlono Rumiy oshiqlari” uyushmasi, Hakim Nosir Xusrav Balxiy madaniyat uyushmasi kabi madaniyat va adabiy markazlarida ijodiy faoliyatlarini olib borish yo‘llarini topdilar. Bu yerdagi shoirlar zarurat tufayli o‘z fikrlarini ochiq-oshkora ifoda etolmaganliklari sababli qarama-qarshi fikrlarini istiora, iyhom, ibhom san’atlaridan foydalangan holda yangi qoliplarda she’r yozdilar. Shu sababdan ham bu davrda (AXD partiyasi hukmronligi davri – A.N.) ko‘proq ramziylik aks etgan birmuncha mavhum she’rlar yuzaga kelgan¹⁵. Partav Nodiriyning asarlari qaysidir ma’noda mamlakatning siyosiy va ijtimoiy masalalari bilan bog‘liq.

¹⁵ صالح محمد خليق، تأثير شاهنامه بر شعر مقاومت افغانستان. تهران، ۲۰۱۶. - ص ۱۱۱.

Partav Nodiriy Qahhor Osiy, Xolida Furug‘ kabi Pokistondan panoh topgan afg‘on qarshilik adabiyotining taniqli vakillaridan hisoblanadi. Nafaqat afg‘on qarshilik adabiyoti, balki “yangi she’r” uslubining ham yorqin namoyondalaridandir. U doimo hukumatning tanqidchisi bo‘lib kelgan. Shoirning “Ozodlikning qonli og‘zi” (“دھان خون آلود آزادى”) nomli she’ri 2002-yil Peshovarda yozilgan.

May ichmayman

شراب نمی نوشم

May ichmayman

شراب نمی نوشم

*G‘amlarim may bilan hal bo‘lishdan-da
og‘irroq*

غم های من سخت تر از آن است، که در شراب حل شود

Zamonning oddiy yechimlari

مظل های ساده روزگار

Ularni boshidan o‘tkazmaganlar hal qilishadi

آن های را حل می کنند که از آغاز هیچ بوده اند

Men bir tog‘ etagida katta bo‘lganman

من در دامنه کوهی بزرگ شده ام

Halol, soddadil qishloq odamlari

که دهاتیان صادق ساده دل

Yorug‘lik o‘lchamini shu bilan o‘lcharlar

امتداد روشنایی را با آن اندازه می گرفتند

Men bir tog‘ etagida katta bo‘lganman

من در دامنه کوهی بزرگ شده ام

Va tunda oy og‘ushida uxlар edim

و شب در آغوش ماه می ختم

Va qadah-qadah yulduz ichardim

و جام جام ستاره می نوشیدم

Va quyoshning oshiqona parvozi bilan,

و با پرواز عاشقانه آفتاب

Osmonni boshidan oxirigacha qoplab olardim

آسمان را کران تا کران زیر پر می گرفتم

Oshiq bo‘lib jonimni berdim tog‘larga

من روح راعاشقوار به کوهستان هایی بخشیده ام

*Tunda oy, ertalab quyosh peshonasidan
o‘padi*

که شب ماه بر جین شان بوسه می زند و بامداد خورشید

*Bo‘ronli dengizlar mening yurtim tog‘laridan
boshlanadi*

توفان دریاها از کوهستان های سرزمین من سرچشمه می گیرند

Mening yurtim tog‘lari

کوهستان های سرزمین من

Ular cho‘l chang bo‘ronidan kuchliroqdir

استوارتر از آن اند که توفان خاک آلود صحراي

*Ularning quyoshli baland qal‘alari uzra
chodir tikilgan*

فراز قله های بلند آفتابی شان، خیمه بر افزارد

Qadimdan may, sharob kabi ichimliklar kishini mast qilib, uni o‘rtayotgan fikrlarini, g‘am-qayg‘ularini unuttiradigan, biroz ko‘ngilxushlik beradigan ichimlik sifatida ko‘rilgan. Shoirning dardi shu qadar og‘irki, buni may bilan hal qilib bo‘lmaydi. Elda “Tanasi boshqa dard bilmas”, “Maslahat berish oson” degan naql bor. Shoir shu o‘rinda mening dardimga malhamni dardimni his qilgan odamgina hal qilishi mumkin, kimki menikidek dardni his qilsa, u ham mendek bu muammoni yechishga ojiz qoladi deb o‘kinadi. Keyingi misralarda shoir tug‘ilgan joyining tavsifini keltiradi, tog‘li so‘lim diyor, qishloq odamlarining soddadil va halol ekanini aytib, shunday insonlar bor ekan, demakki, yorug‘ kunlarim hali davom etadi deb ishonch bildiradi.

*Yurtimning tog‘lari hamisha tarixni fath
qilgan*

کوهستان های سرزمین من فاتحان همیشه گی تاریخ اند

Yurtimning tog‘lari ozodlikka shay lashkarlar

کوهستان های سرزمین من سپاهیان آماده آزادی اند

O‘zimning tog‘larimni

من سرزمین کوهستانی خود را

Uning och olomon bilan yaxshi ko‘raman

با انبوه گرسنه گان آن دوست دارم

*Mening tog 'li yurtim yaralangan sutli ariqdir
Uning qonli yaralariki,
Ozodlikning qonli og 'zidir
uning buyuk borligi bilan hayqiradi*

سرزمىن كوهستانى من شىزە شىرى زخم خورده اى است
كە زخم ھاى خونىنىش
دهان خون آلۇد آزادى است
كە هىستى بىزىگ خود را فېرياد مى زند

Ma'lumki, qadimdan afg'on yurti geosiyosiy yer bo'lib ko'p mamlakatlarning tajovuziga uchragan. Ammo shunisi ham ayonki, xoh u davlat, xoh bu davlat vaqtincha boshqarib turgan bo'lsa ham butun mamlakatni to'la to'kis bo'ysindirolmagan. Shoir shu o'rinda o'z vatanini doim g'olib bo'lganini, hech bir zulmkor uni bo'ysundirolmaganini ta'kidlab o'tadi. Notinchlik, beqarorliklardan xalqning qalbi qon, ularning og'ir dardi bor. Shoir buni ozodlik deb ataydi va uni yaralaridan qon oqib turgan og'izga mengzaydi. Garchi yurti vayrona bo'lsa ham, odamlari och-nahor, abgor bo'lsa ham uni yaxshi ko'rishini ta'kidlaydi.

<i>Qo 'yvoring, qo 'yvoring</i>	بىگذار، بىگذار
<i>Zamonning qalbi qon</i>	لەفان پاۋە روزگار
<i>Ularning taslimlik qo 'shig 'ini begona tilda takrorlang</i>	سُرۇد تسلىمى خود را با زىبان بېگانە تىكراڭىندا
<i>Lekin men hamon jannatning baland saroyidaman</i>	ولى من ھم چنان در کاخ بلند فرودسى
<i>Mening uyim bor, eshigida yozilganki O-</i>	اتاقى دارم كە روى دروازە آن نوشته شدە است
<i>ZOD-</i>	ا
<i>LIK.</i>	زا
	دى

Shoir she'riming so'nggi bandida o'zining keljakka, yorug' kunlarga bo'lган ishonchini bildiradi. U isyon qilib, baralla xorij bosqinchilar kuni kelib o'z tillarida taslim bo'ldik deb kuylaydilar, o'shanda men jannatda bo'lsam-da, mening uyim eshigiga "OZODLIK" deb yozib qo'yilgan, deb aytadi.

XULOSA

Qarshilik she'riyati afg'on adabiyotida alohida ahamiyatlidir. Bu davrdagi siyosiy-tarixiy omillar adabiy qatlamga va adabiyotga ham ta'sir o'tkazishi natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, Afg'oniston qarshilik adabiyoti milliy o'zlikni saqlash, qarshilik ruhini kuchaytirish, bosqinchilarining zulmini fosh qilish, keljakka umid yaratish, jasoratni uyg'otish, bosqinchiliq kuchlarga qarshi turish va kurashishga turtki yaratish va pirovardida qahramonlik ruhini yuksaltirishdan iboratdir.

Savr voqealari ortidan Afg'oniston adabiyoti fojeaviy qismatni boshdan kechirgan bo'lsa-da, Afg'onistonning qarshilik she'riyati fors adabiyotining qimmatli xazinasi bo'lib, bu zamin xalqining jasorati va fidoyiliklarini tasvirlay olishini ko'rsatib qo'ydi. Urush she'riyati goh shahid bo'lib, samolarga uchdi, goh askar bo'lib mina ustida yurib oyog'idan ayrıldi, goh o'zaro tafovutlar, to'kilgan qonlar vahshatidan dod deb, tushkunlikka cho'mdi, kezi kelganda esa yorug' kunlar kelishiga ishonib, xalqni irodali bo'lishga chorladı. She'r bosqinchilik zamonlarda zulmkorlarga qarshi qurol vazifasini o'tagan va xalqda jasorat ruhini saqlab qolgan bo'lsa, ichki urushlar avj olgan yillarda bu she'r odamlarning qulog'iga tinchlik va murosaga da'vat sifatida yetib kelgan.

Afg'on qarshilik she'riyati bugun ham yangi avlodlar uchun ilhom manbai bo'lib yashashda davom etib, bu zamin ahli qalbida tinchlik zamonlariga bo'lgan umid nurini yorqin saqlamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.M.Mannonov. Ochilmay qolgan g'unchalar//Sharqshunoslik masalalari. T.: Fan, 2022.
2. صالح محمد خليق، تأثر شاهنامه بر شعر مقاومت افغانستان. تهران، ۲۰۱۶
3. یلی کمالوند، بررسی شعر معاصر افغانستان با تکیه بر ادبیات مقاومت و همسویی با ادبیات پایداری مشروطیت در ایران. – ۱۳۹۰، تهران
4. https://www.mkkazemi.com/moghavemat_afg/